


## Naqd pul muomalasi bo'yicha qisqacha sharh

2025-yil yanvar-iyun oylarida umumiy pul tushumlari **491 trln.** so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **27 foizga** o'sgan.

Hisobot davrida, umumiy pul tushumlarida terminal orqali tushumlar ulushi 2024 yil I-yarim yilligidagi **41 foizdan 43 foizga** o'sib, uning tarkibida savdo va xizmatlar sohasidan terminal tushumlari salmog'i **45 foizdan 48 foizga** oshishi kuzatildi.

**1-rasm: Umumiy pul tushumlari tarkibi va dinamikasi**


trln.so'mda



2025-yil yanvar-iyun oylarida banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi **563 trln. so'mni** (*naqd pul tushumlari – 277 trln.so'm, berilgan naqd pullar – 286 trln.so'm*) tashkil etgani holda, 2024-yilning mos davriga nisbatan **23 foizga** oshdi.

## 2-rasm: Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi


trln.so'mda



Banklarga naqd pullar tushumining tarkibiy tuzilishida keskin o'zgarishlar kuzatilmadi.

## 3-rasm: Banklardan naqd puldag'i chiqimlar hajmi va ularning maqsadlari bo'yicha tarkibiy dinamikasi


trln.so'mda



2025-yil yanvar-iyun oylarida bank kartalariga **676 trln.** so‘m mablag‘lar kirim qilingan. Bu ko‘rsatkich 2024-yil mos davriga nisbatan **1,4 barobarga** oshdi va ushbu davrda bank kartalaridagi **129 trln.** so‘m mablag‘lar naqdashtirib olingan.

2025-yil yanvar-iyun oylarida bank kartalariga kelib tushgan mablag‘larning **19 foizi** naqdashtirib olingan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davrida **23 foizni** (2023-yilda 24 foizni) tashkil etgan.

**4-rasm: Bank kartalariga kelib tushgan mablag‘lar va ularni naqdashtirish hajmlari dinamikasi**



Mavsumiy omillar ta’sirida naqd pulga bo‘lgan talabning ortishi natijasida banklarga tushgan naqd pullarning ularga bo‘lgan talab o‘rtasidagi farq Markaziy bank tomonidan muomalaga qo‘srimcha naqd pullarni chiqarish orqali ta’minlab borildi.

Jumladan, Markaziy bank tomonidan joriy yilning 6 oyi mobaynida muomalaga qo‘srimcha **5,2 trln.** so‘m naqd pullar chiqarildi.

2025-yil 1-iyul holatiga umumiyl pul massasidagi naqd pullarning ulushi **18,9 foizni** tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **2,2 foiz** bandga pasaydi.

**5-rasm. Muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi dinamikasi**

